

Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti Va Oila Hamkorligida Barkamol Avlodni Tarbiyalash

*Matrizayeva Bonu Saburjon qizi*¹

Anatatsiya: Mazkur maqoladayosh avlodni barkamol, xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashda Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining ahamiyati, mutafakkirlarning tarbiya jarayonida oilaning o'rnini haqidagi ta'limotlari, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida bolalarga ta'lim berish usullari, bolaning rivojlanishiga muhitning ta'siri, bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rnini haqidayoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-ona, hamkorlik, tarbiyachi, oila, maktabgacha ta'lim yoshi, tarbiya, pedagogik mahorat.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, ma'naviyyuksalishi, farovonligi, istiqboli, eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – ma'naviyatli, yuqori intellektual salohiyatli, ongiga va qalbiga ezigufazilatlarini mujassamlagan yurt kelajagi bo'lmish yoshlarga bog'liq. Har jihatdanyetuk va barkamol, fidoyi, Vatan taqdiri uchun sidqidildan xizmat qiladigan, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmunijihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo pedagog vatarbiyachilar zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rin va ahamiyatini hech narsa bilan o'chab bo'lmaydi"-deb aytgan.² Bundan ko'rinib turibdiki bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, barkamol avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" kabi me'yoriy huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni, Maktabgacha ta'lim tizimi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlarini, fikrni birmuncha aniq ifoda etadigan bo'ladi va aqli yetgan narsalarni so'raydi, ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ilk ta'limni bolalaga uning oilasi beradi. Jumladan, ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar.

Mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniy o'z asarlarida ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr yuritgan.. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi. U ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'ga asoslanadi, deydi. Biroq bu obro' tabiatan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qo'rquv, qo'rqitish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatdan kelib chiqadi deb ta'kidlaydi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy tarbiyada xatolikda yo'l qo'yish mumkin emasligini uqtirgan. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalashda xatolikka yo'l qo'yish uning kelajagiga ta'sir qilishi mumkin. Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tuman bo'lib, ular orasida keng tarqalganlardan biri ota-onalarning xaddan tashqari xukmronlikka intilishlari, bolalarni mustaqil fikrlashiga, biro bir ishni bajarishiga imkon bermasliklaridir. Bolaning erka bo'lishi esa ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq va buning oqibatida bola irodasiz, xudbin bo'lib o'sadi. Bu belgilarga ko'ra oilaning bir necha turini ajratish mumkin. Tarbiyachilarga oila turlarini bilishiva u bilan o'ziga xos holda ishlashilozim. Oila turlari Rizouddin Ibn Faxriddinning "Oila" nomli risolasida ko'rsatilgan.

Birinchi turi. Tinch oilalar mehnat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda faol

ishtrok etayotgan ko'pchilik oilalar kiradi. Bu turdagi oilaga ota-onalar va bolalar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, aqli va meyordagi talablar bolaning ijtimoiy munosabati meyorlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi xosdir.

Ikkinchi turi. Yuzaki tinch oilalar. Bu turdagi oilalarga oila azolari tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar bir xilda bo'lmasdan, stixiyali tarzda bo'ladi. Bunda bolaning imkoniyatlari hisobga olinmaydi. Bolaning hayoti noto'g'ri tashkil etiladi. Tarbiyaning bu turida ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, ularning talabini bajarmaslik kabi xolatlar rivojlanishi mumkin. Yuzaki tinch oilalar bilan ishlashda tarbiyachi otauna diqqal e'tiburini oiladagi psixologik vaziyaini, ota-onalar o'rtasidagi munosabat yo'nalishini o'zlashtirishga qaratadi.

Notinch oilalar. Bunday turdagi oilalarda ma'naviy qiziqishlar kam bo'ladi. Bunday oilalarga ishlab chiqarish, oilaviy vazifalarga befarq munosabatda bo'lish, oilaviy an'analarga e'tibor bermaslik, uy ishlariga loqayd munosabatda bo'lish xos

¹ Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti talabalasi

² Sh.M. Mirziyoyev-"Yangi O'zbekiston Strategiyasi"-Toshkent-2021-226b

bo'ladi. Bola qo'rs, qo'pol, urishqoq bo'lib qoladi. Kattalar va jamoa tartiblariga bo'ysinmaydi. "Tarbiyasi og'ir" bolalarning ko'p qismi ana shunday oilalarda etishadi. Zamonaviy sharoitlarda notinch oila muammosi eng dolzarb muammolardandir. Oila - maktabgacha ta'lim yoshidagi bola uchun birinchi ijtimoiy muhitdir. Agar u notinch bo'lsa, bolaning sog'lig'iga ham, uning xulqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi

Tarbiyachi bolalarning salomatligi, xulqi o'z tengdoshlari bilan mu nosabatini doimo kuzatib borishi lozim. Bunday oilalar bolaning bezovtaligida o'z aksini ko'rsatadi.

To'liqmas oilalar. Bu turdagi oilada ota onadan biri bo'lmaydi. Bunday oilalarda ota-onalardan birining yo'qligini bildirmaslik uchun oila azolaridan har birining bolaga ta'sirini kuchaytirish, bola o'zaro munosabatlarda kamchilik sezmasligi uchun bola tarbiyasiga oiladan ketgan a'zoni boshqa qarindoshlarini jalb qilish muhimdir.

Bu N. K. Krupskyaning "Oilaviy tarbiya ota-onalar uchun avvalo o'z-o'zini tarbiyalash demakdir"- degan fikrlarining isbotidir. Bola qachonki oila tinch bo'lsa, agar oila to'liq bo'lmasada u yashayotgan muhit tinch va e'tibor bo'lsa bu bolabo'la to'liq, lekin munazam janjal bo'ladigan oila farzandiga nisbatan o'zlashtirishi, tarbiyasijihatidan yaxshi rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashning jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mavjud bo'lib, bu jarayonlar muntazamamalgaga oshirilsa, bundan tashqari keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarining turli xil shakllari aniqlangan: oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hayoti bilan tanishishlari.
- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.
- ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.
- ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Ota-onalar bilan bunday hamkorlik shakllari samarali hisoblanib, bu bolaning barkamol bo'lib tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega.

Maktabgachata'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun treninglar, interfaol metodlar vaqti- vaqti bilano'tkazilib turilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarbiyachi bolalarga o'tkaziladigan mashg'ulotlarni mustahkamlash uchun ota-onalarga kundalik foydalansa bo'ladigan o'yinlarni o'rgatib borishi, pedagogik maslahatlar berishi lozim. Ayniqsa, maktab yoshidagi 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalarning ishtirokida olibboriladigan har bir mashg'ulotlar farzandlarining nimaga qodir ekanligini anglab olishlariga yaqindan yordam beradi va bolalarning qiziqishin ota-onalar bilgan holda maktab davrida ham shu qiziqishni rivojlantirishga harakat qilishadi. Bu jarayonlar orqali bolalarni maktabgatayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyatini oshirish mumkin.

Bola tarbiyasida muhit ham o'z o'rniga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi bolaga ma'sul bo'sa, oilada ota-ona ma'suldir. Bu ikkala tomon ham bolaning o'sib-ulg'ayayotgan muhitini nazorat qilishi, do'stlar davrasidagi muhit bilan qiziqishi lozim. Tarbiyachi muhit tarbiyasidan oqilona foydalana olishi lozim. Masalan, o'zlashtirishi nisbatan pastroq bolalarni kitobni yaxshi ko'radigan, o'zlashtirishi, tarbiyasi yaxshi bolalar davrasiga yoki kam gap nutqiy tomonlama ortda qolayotgan bolalarni nutq boyligi ko'p, o'z fikrini mustaqil bayon eta oladigan bolalar davrasiga qo'shishi, mashg'ulot jarayonlarida ham ularni bir guruhga taqsimlashi lozim. Bu jarayonda muhit bolalarga ijobiy ta'sir qiladi. Xuddi shu jarayondan ota-onalar ham foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida faoliyat olib borish bu samarali usul hisoblanib, bunda tarbiyachi hamkorlik jarayonida oilalarning turidan kelib chiqqan holda yondashishi lozim. Bola Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zlashtirganini oila davrasida mustahkamlab borar ekan uning o'zlashtirish ko'rsatkichi oshib boraveradi. Bu bolaning kelajakda o'zi qiziqqan yo'nalishi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishiga ham yordam beradi. Kelajak avlod qanchalik muvoffaqiyatga erishishi uning yoshlikdan olgan ta'lim tarbiyasi, o'zi qiziqqan sohaga to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Chunki, bolalikdagi qiziqish insonning butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Ota-onalar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish lozim. Hozirgi kunda bu davr talabi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi to'g'ri tashkil qilinsa, yutimiz kelajagiga o'z hissasini qo'sha oaldigan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
2. Sh.M. Mirziyoyev- "Yangi O'zbekiston Strategiyasi"- Toshkent-2021.

3. A.D. Qurbonovna –“Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” – Namangan-T:2020.
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova -“Maktabgacha pedagogika”T: “Tafakkur”-2019.
5. Sodiqova Sh.A.-“Maktabgacha pedagogika.” – T, 2018.
6. D.R.Babayeva-“Nutq o‘stirish nazariyasiva metodikasi”-Toshkent 2018.
7. Berdiyeva M.M.-“Maktabgacha pedagogika” fanidan o‘quv-uslubiy majmua-Termiz-2018.